Xorijiy tajriba asosida investitsiya muhiti raqobatbardoshligini oshirish masalasi bir qator olimlarning ilmiy ishlarida o'rganilgan. V.V. Pobirchenko va Ye.A. Shutaeva maxsus iqtisodiy zonalar, soliq imtiyozlari hamda investorlar huquqlarini himoya qilish mexanizmlarini tahlil qilgan [8]. D.S. Salaev Malayziya va Birlashgan Arab Amirliklari tajribasini o'rganib, erkin iqtisodiy zonalar hamda moslashuvchan soliq tizimi O'zbekiston uchun muhim ahamiyatga ega ekanligini asoslagan [9]. G.K. Maygojina esa investitsiyaviy iqlimga ta'sir etuvchi omillarni Global innovatsion indeks asosida qiyosiy tahlil qilib, amaliy tavsiyalar ishlab chiqqan [10].

Empirik tadqiqotlar institutlar sifatining to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimiga ta'sirini tasdiqlaydi. Xususan, A. Benassy-Quere, M. Coupet va T. Mayer 52 ta mamlakat ma'lumotlari asosida institutlar sifati yalpi ichki mahsulot darajasidan mustaqil ravishda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ilmiy jihatdan asoslagan [1]. M. Habib va L. Zurawicki korrupsiya investitsiya oqimini sezilarli darajada kamaytirishini aniqlagan [4]. E. Asiedu rivojlanayotgan mamlakatlarga investitsiya jalb etishda makroiqtisodiy barqarorlik va infratuzilmaning muhim rolini ko'rsatib bergan [6]. C. Daude va E. Stein esa boshqaruv sifati hamda huquq ustuvorligining investitsiya muhitini yaxshilashdagi ahamiyatini asoslagan [7].

Yuqorida qayd etilgan adabiyotlarda investitsiya muhitining alohida omillari yetarlicha o'rganilgan. Shu bilan birga, turli mamlakatlarning yaxlit investitsiya modellari yagona mezonlar asosida qiyoslanishi hamda ularni o'tish iqtisodiyoti sharoitidagi milliy iqtisodiyotga moslashtirish masalasi yanada chuqur tadqiq etishni talab etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv, abstraksiyadan konkretlikka o'tish hamda deskriptiv statistik tahlil usullaridan foydalanildi. Xorijiy modellarni baholashda ularning samaradorligini aks ettiruvchi xalqaro reyting va indekslar, shuningdek, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar dinamikasi ko'rsatkichlari asos qilib olindi.

Xorijiy tajribani tahlil qilishda Singapur, Irlandiya, Xitoy, Argentina va Birlashgan Arab Amirliklari tadqiqot obyekti sifatida tanlab olindi. Mamlakatlarni tanlash jarayoni to'rtta metodologik mezon asoslandi. Birinchidan, investitsiya muhiti ko'rsatkichlari bo'yicha ijobiy natijalarga erishgan mamlakatlarga ustuvorlik berildi hamda islohotlar samaradorligi asosiy o'lchov sifatida qabul qilindi. Ikkinchidan, iqtisodiyot ko'lami va tarkibiy xilma-xilligi inobatga olindi. Jumladan, Irlandiya va Singapur kabi kichik ochiq iqtisodiyotlar bilan bir qatorda Argentina hamda Birlashgan Arab Amirliklari kabi yirik rivojlanayotgan mamlakatlar ham tahlilga kiritildi.

Uchinchidan, O'zbekiston bilan taqqoslash imkoniyati muhim mezon sifatida belgilandi. O'tish iqtisodiyotiga xos jihatlari, institutsional islohotlar bosqichi hamda mintaqaviy raqobat muhitidagi o'xshashliklar ushbu tanlovda asosiy yo'naltiruvchi omillar sifatida xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Iqtisodiy adabiyotlarda investitsiya muhiti raqobatbardoshligini baholash masalasida yagona metodologik yondashuv hali to'liq shakllanmagan. Amaliyotda ushbu jarayonni baholashda turli xil va bir-biridan farqlanuvchi konseptual modellardan keng foydalaniladi. Umuman olganda, investitsiya muhiti raqobatbardoshligi deganda mamlakatning boshqa davlatlarga nisbatan investorlar uchun qulayroq va jozibadorroq shart-sharoitlarni yaratish hamda ularni barqaror saqlab turish qobiliyati tushuniladi. Investitsiya muhiti raqobatbardoshligi



institutsional barqarorlik, huquqiy himoya, soliq yukining maqbulligi, infratuzilma rivoji, inson kapitali va iqtisodiy ochiqlik kabi omillar uyg'unligida namoyon bo'ladi.

Xalqaro amaliyotda investitsiya muhitini baholashning bir necha reyting tizimlari mavjud bo'lib, ularning har biri mamlakatlar investitsiya muhitiga o'ziga xos metodologik yondashuvlar asosida baho beradi. Jahon iqtisodiy forumining Global raqobatbardoshlik indeksi institutlar, infratuzilma, makroiqtisodiy barqarorlik va innovatsion salohiyat kabi ustunlar orqali mamlakatlar raqobatbardoshligini baholaydi. "Heritage Foundation"ning Iqtisodiy erkinlik indeksi esa mulk huquqlari, soliq yuki va tartibga solish samaradorligi kabi mezonlar asosida iqtisodiy erkinlik darajasini o'Ichaydi. 2024-yilda Jahon banki ko'p yillar davomida amalda bo'lgan Doing Business loyihasi o'rniga yangi Business Ready (B-READY) metodologiyasini joriy etdi. Ushbu tizim biznes va investitsiya muhitini tartibga solish bazasi, davlat xizmatlari, amaliy samaradorlik hamda biznes hayoti sikli bilan bog'liq o'nta mavzu bo'yicha baholaydi.

Singapur investitsiya muhitini institutsional islohotlar orqali shakllantirishning xalqaro miqyosda tan olingan namunalardan biriga aylangan. Kuzatuv davri davomida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar kirimi yalpi ichki mahsulotga nisbatan 17–33 % oralg'ida barqaror saqlangan. Bu ko'rsatkich tasodifiy afzalliklar natijasi emas, balki puxta shakllantirilgan institutsional tizim samarasi sifatida baholanadi. Singapur modelining asosi uchta ustunga tayanadi: korrupsiyaning tizimli cheklanishi, prognoz qilinadigan huquqiy muhit hamda ma'muriy to'siqlarni minimallashtiruvchi mexanizmlar. Korporativ soliq yukining maqbullashtirilishi ma'muriy tartiblarni tizimli soddalashtirish bilan uyg'unlashib, investitsiya jarayonlari samaradorligini oshirishga zamin yaratgan. UNCTAD WIR (2024) ma'lumotlariga ko'ra, Singapur raqamli davlat boshqaruvi vositalarini investitsiya jalb etish tizimiga integratsiya qilgan ilk mamlakatlardan biri hisoblanadi [2]. Singapur tajribasining metodologik mohiyati shundan iboratki, soliq imtiyozlari institutsional sifatning o'rnini bosmagan, aksincha, unga tayangan holda samarali natija bergan.

Irlandiya xalqaro investitsiyalarni jalb etish amaliyotida soliq raqobatbardoshligiga asoslangan model sifatida alohida o'rin egallaydi. 1990-yillardan boshlab qo'llanilib kelinayotgan 12,5 % lik korporativ soliq stavkasi AQSh va Yevropaning yirik transmilliy korporatsiyalarini, avvalo, IT va farmatsevtika sohasidagi kompaniyalarni mamlakatga jalb etishning muhim vositasiga aylangan. Natijada 2015-yilda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning yalpi ichki mahsulotga nisbati 74,82 % ga ko'tarilgan. Shu bilan birga, vaqt o'tishi bilan ushbu modelning tizimli jihatlari yanada chuqur tahlil qilina boshladi. 2022–2023-yillarda mazkur ko'rsatkich keskin pasayib, mos ravishda -6,49 % va -24,67 % ni tashkil etdi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, bunday tebranishlar ko'proq iqtisodiyotdagi real ishlab chiqarish o'zgarishlari bilan emas, balki transmilliy korporatsiyalarning soliq majburiyatlarini optimallashtirish strategiyalari bilan bog'liq. Shu bilan birga, 2023-yilda korporativ soliq tushumining 56 % i atigi o'nta yirik korporativ guruh hisobiga shakllangani moliyaviy tizimda yuqori konsentratsiya mavjudligini ko'rsatadi [5]. Irlandiya tajribasi shundan dalolat beradiki, soliq imtiyozlariga asoslangan raqobatbardoshlik strategiyasi institutsional barqarorlik, iqtisodiy diversifikatsiya va real sektor bilan uyg'unlashgan taqdiridagina uzoq muddatli samaradorlikni ta'minlaydi (1-jadval).

1-jadval

Investitsiya muhiti raqobatbardoshligini ta'minlashning xorijiy modellar solishtirma tahlili[2]¹

Model	Asosiy mexanizm va kalit institut	Erishilgan natija	E'tibor qaratilishi lozim bo'lgan jihatlar
Singapur	Institutsional samaradorlik, huquq ustuvorligi; EDB	Jahon darajasidagi biznes muhiti va yuqori TTXI oqimi shakllangan	Kuchli davlat boshqaruvi va yuqori kadrlar salohiyatini talab qiladi
Irlandiya	Past korporativ soliq stavkasi, malakali kadrlar; IDA Ireland	Texnologiya va farmatsevtika sohasida yirik TMKlar jalb etilgan	Global soliq islohotlari, xususan, minimal soliq mexanizmi ta'siriga bog'liq
Xitoy	Erkin iqtisodiy zonalar, bosqichma-bosqich liberallashtirish	Yirik ishlab chiqarish va eksportga yo'naltirilgan investitsiyalar jalb etilgan	Yirik ichki bozor va davlat resurslaridan samarali foydalanishga tayanadi
Birlashgan Arab Amirliklari (BAA)	Erkin zonalar, 100 % egalik huquqi, logistika infratuzilmasi va diversifikatsiya siyosati	Xizmatlar, savdo va logistika sohasida TTXI markaziga aylangan	Kapital sig'imi yuqori bo'lgan infratuzilmaga katta sarmoya talab etiladi
Argentina	Imtiyozli soliq rejimi, ikki tomonlama investitsiya shartnomalari, liberal investitsiya tartibi; Investitsiyalarni jalb etish milliy boshqarmasi	Keng shartnomaviy baza va liberal investitsiya rejimi shakllantirilgan	Makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash natijadorlikni oshirishda muhim ahamiyatga ega


1 Muallif tomonidan yaratilgan.



Xitoy tajribasi investitsiya muhitini shakllantirishda davlat rahbarligidagi strategik yondashuvning o'ziga xos namunasini ifodalaydi. Shenchjen maxsus iqtisodiy zonasi (MIZ) lokal islohotlardan umumiy iqtisodiy o'zgarishlarga o'tishning klassik misoli sifatida e'tirof etiladi. 2007-yilga kelib, maxsus iqtisodiy zonalar Xitoy yalpi ichki mahsulotining 22 % ini, xorijiy investitsiyalar kirimining 46 % ini va eksport hajmining 60 % ini ta'minlagan hamda 30 milliondan ortiq ish o'rni yaratilishiga xizmat qilgan [11].

Biroq 1-rasm ma'lumotlariga ko'ra, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning yalpi ichki mahsulotga nisbati 2010-yildagi 3,94 % dan 2024-yilda 0,10 % gacha pasaygan. Ushbu dinamika global qiymat zanjirlarining qayta shakllanishi hamda geoiqtisodiy va geosiyosiy omillar ta'sirini aks ettiradi. Shu bilan birga, maxsus iqtisodiy zonalar doirasidagi o'sish natijalarini atrof hududlarga kengroq yoyish, ularning mahalliy iqtisodiyot bilan uzviy integratsiyasini kuchaytirish muhim ilmiy-amaliy vazifa bo'lib qolmoqda [12]. Mazkur tajriba shuni ko'rsatadiki, MIZ mexanizmi infratuzilma, institutsional salohiyat va mehnat resurslari malakasi bilan uyg'un rivojlangan taqdirdagina strategik jihatdan kutilgan natijalarga erishish mumkin (1-rasm).

ТТХИ соф кирими динамикаси (ЯИМга нисбатан, %), 2010–2024 йил.



1-rasm. Mamlakatlarga TTXI sof kirimi dinamikasi (YalMga nisbatan, %) [1].

Argentina tajribasi investitsiya muhitini raqobatbardosh qilishga qaratilgan chora-tadbirlar mustahkam makroiqtisodiy zamin bilan uyg'unlashgan taqdirdagina kutilgan samarani berishini ko'rsatadi. Mamlakat hukumati investorlarni jalb etish maqsadida bir qator tizimli choralarni amalga oshirgan. Xususan, avtomobil sektoriga nisbatan imtiyozli soliq rejimi joriy etilgan, 60 dan ortiq mamlakat bilan ikki tomonlama investitsiya shartnomalari imzolangan, qo'sh soliqqa tortishning oldini olish bo'yicha 18 ta shartnoma tuzilgan, Investitsiyalarni jalb etish milliy boshqarmasi tashkil etilgan hamda xorijiy investorlar uchun liberal investitsiya rejimi shakllantirilgan. Ushbu rejim doirasida mulkka to'liq egalik qilish huquqi va oldindan ruxsat olmasdan investitsiya kiritish imkoniyati ta'minlangan. Shu bilan birga, makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash investitsiyalarni jalb etishda izchil va barqaror natijalarga erishishning muhim omili hisoblanadi. 1-rasm ma'lumotlariga ko'ra, 2018–2020-yillardagi pasayish davridan so'ng 2021-yilda mamlakatga kirgan investitsiyalar hajmi yalpi ichki mahsulotga nisbatan 10,3 % gacha oshgani investitsion faollikning tiklanish tendensiyasini namoyon etdi. Shu bilan birga, kapital harakatini tartibga solish choralari, inflyatsion bosim, budjet taqchilligini moliyalashtirish mexanizmlari hamda aholining ijtimoiy-iqtisodiy holati investitsiya muhitini yanada barqaror rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi. Argentina tajribasi shuni tasdiqlaydiki, soliq imtiyozlari va institutsional islohotlar makroiqtisodiy barqarorlik bilan uyg'un amalga oshirilganda investitsiya muhitining raqobatbardoshligini oshirishga samarali xizmat qiladi.

Birlashgan Arab Amirliklari tajribasi moliya tizimi, zamonaviy infratuzilma va kapital erkinligini bir vaqtda rivojlantirish orqali investitsiya muhitini tizimli shakllantirishning zamonaviy namunasi sifatida e'tirof etiladi. 2024-yilda FATF tomonidan mamlakatning "kuzatuv ro'yxati"dan chiqarilishi ikki yillik keng ko'lami moliyaviy sog'lomlashtirish choralarning natijasi bo'lib, xorijiy investorlar uchun moliyaviy ishonchni sezilarli darajada oshirdi [3]. Norezident investorlar uchun liberal mulkchilik rejimi, transfer narxlash va foyda repatriatsiyasiga



cheklovsiz ruxsat berilishi, shuningdek, “Jebel Ali” erkin iqtisodiy zonasi infratuzilmasi Birlashgan Arab Amirliklarining mintaqaviy investitsiya markazi sifatidagi mavqeini yanada mustahkamladi. Rodriking “mutanosiblik” konsepsiyasi nuqtayi nazaridan, Birlashgan Arab Amirliklari tajribasi moliya, infratuzilma va kapital erkinligi bloklarining sinergik rivojlanishi raqobatbardoshlikni alohida islohotlar yig’indisidan sifat jihatidan yuqori bosqichga olib chiqishini amaliy jihatdan tasdiqlaydi [13]. Shu bilan birga, uglevodorodlarga tuzilmaviy bog’liqlikni bosqichma-bosqich kamaytirish va iqtisodiy diversifikatsiyani yanada chuqurlashtirish uzoq muddatli barqarorlikni mustahkamlashning muhim sharti hisoblanadi.

Jahon banki ma’lumotlaridan kelib chiqib, 1-rasmda tasvirlanganidek, O‘zbekistonda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning yalpi ichki mahsulotga nisbatan sof kirimi uzoq muddatli tarixiy o‘rtacha ko‘rsatkichda taxminan 1,5 % atrofida shakllangan. Ushbu ko‘rsatkich 2019-yilda eng yuqori nuqtaga, ya’ni 3,44 % ga yetgan, keyinchalik esa 2023-yilda 2,1 % va 2024-yilda 2,6 % oraliqida barqarorlashgan. Mazkur natija jahon o‘rtacha ko‘rsatkichidan, ya’ni taxminan 3–4 % darajasidan past bo‘lib, investitsiyalarni jalb etishda “sezilarli muvaffaqiyat” mezonini sifatida qaraladigan 5–6 % chegarasiga hali yetmagan. Shu bilan birga, 2017-yildan boshlangan keng ko‘lamli islohotlar investitsiya muhitini institutsional jihatdan tubdan yangilashga xizmat qildi. Jumladan, valyuta rejimi liberallashtirildi, dual kurs amaliyoti bartaraf etildi, foydani erkin repatriatsiya qilish imkoniyati yaratildi, eksport tushumini majburiy sotish talabi bekor qilindi hamda “elektron hukumat” xizmatlari kengaytirildi [14].

Hozirgi kunda O‘zbekistonda olib borilayotgan islohotlar yuqorida tahlil qilingan xorijiy modellarning bir necha muhim elementlarini o‘zida mujassamlashtiradi. Xususan, institutsional va huquqiy bazani mustahkamlash Singapur tajribasiga, IT Parklarda qo‘shilgan qiymat solig‘i va foyda solig‘idan ozod etish kabi soliq imtiyozlari hamda erkin zonalar tizimi Irlandiya, Xitoy va Birlashgan Arab Amirliklari tajribalariga, raqamli davlat xizmatlarini joriy etish esa Singapur modeliga yaqin yondashuv sifatida baholanishi mumkin.

Yuqoridagi tahlilga asoslanib, xorijiy modellarni O‘zbekiston sharoitiga moslashtirishda bir necha ustuvor islohot yo‘nalishlariga e’tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. Avvalo, institutsional islohotlar doirasida investorlar huquqlarini mustaqil sud tizimi va xalqaro arbitraj, jumladan, ICSID mexanizmlari orqali himoya qilish, investitsiya kafolatlarini qonun darajasida mustahkamlash hamda investitsiya siyosatining izchilligi va prognozlligini ta’minlash zarur. Bunda islohotlar ketma-ketligiga rioya etish, ya’ni avvalo institutsional va huquqiy bazani mustahkamlash, keyinchalik soliq va ma’muriy rag‘batlantirish choralarini aynan shu poydevor asosida rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Ushbu yondashuv Singapur tajribasining asosiy institutsional jihatlarini milliy sharoitga moslashtirish imkonini beradi.

Soliq-rag‘batlantirish yo‘nalishida imtiyozlarni tarmoqlar va hududlar kesimida maqsadli, shaffof hamda prognoz qilish oson bo‘lgan tartibda qo‘llash lozim. Bunda soliq imtiyozlari raqobatbardoshlikning yagona ustuni sifatida emas, balki institutsional barqarorlik va real sektor rivojini qo‘llab-quvvatlovchi qo‘shimcha vosita sifatida qaralishi kerak. Irlandiya tajribasidan kelib chiqib, imtiyozlarni global soliq standartlariga moslashtirish, investorlar tarkibining haddan tashqari konsentratsiyasiga yo‘l qo‘ymaslik hamda yuqori qo‘shilgan qiymat yaratadigan tarmoqlarga ustuvorlik berish muhim hisoblanadi.

Hududiy rivojlanish yo‘nalishida erkin iqtisodiy zonalar samaradorligini oshirish, ularni eksport faoliyati va global qiymat zanjirlariga chuqur integratsiyalash, norezident investorlar uchun to‘liq egalik huquqi hamda foyda repatriatsiyasi erkinligini kafolatlash maqsadga muvofiqdir. Shu bilan birga, “anklav effekti”ning oldini olish uchun erkin iqtisodiy zonalarini atrof hududlar iqtisodiyoti, infratuzilma tizimi va mahalliy mehnat bozori bilan uzviy bog‘lash zarur. Xitoy va Birlashgan Arab Amirliklari tajribasi shuni ko‘rsatadiki, moliya, infratuzilma va kapital erkinligi bloklari bir vaqtda rivojlantirilgandagina hududiy investitsiya siyosati yuqori natija beradi.

Raqamli boshqaruv ustuvor yo‘nalishida investitsiya jarayonlarini to‘liq raqamlashtirish, “yagona darcha” tizimini yanada rivojlantirish, ma’muriy to‘siqlar va korrupsiya omillarini kamaytirish muhim ahamiyatga ega. Raqamli hukumat vositalarini investitsiya jalb etish jarayonining tezlashtiruvchisi hamda institutsional shaffoflikni kuchaytirish mexanizmi sifatida joriy etish Singapur tajribasini O‘zbekiston sharoitiga moslashtirishning amaliy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib xizmat qiladi.

Inson kapitali yo‘nalishida investorlar talabiga mos malakali kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, oliy ta’lim va kasb-hunar dasturlarini ustuvor investitsiya tarmoqlari, jumladan, IT, farmatsevtika va yuqori texnologik ishlab chiqarish ehtiyojlariga muvofiqlashtirish lozim. Singapur va Birlashgan Arab Amirliklari tajribasi shuni ko‘rsatadiki, institutsional hamda infratuzilmaviy islohotlar yetarli inson kapitali bilan uyg‘unlashgandagina barqaror va yuqori samaradorlikka erishadi.

Makroiqtisodiy barqarorlik yo‘nalishida past va prognoz qilinadigan inflyatsiyani ta’minlash, budjet intizomini mustahkamlash hamda valyuta barqarorligini saqlash investitsiya iqlimi uchun ishonchli makroiqtisodiy zamin yaratadi. Argentina tajribasi soliq imtiyozlari va institutsional islohotlar makroiqtisodiy barqarorlikdan ajratilgan holda amalga oshirilganda kutilgan natijani bermasligini ko‘rsatadi. Shu bois ushbu yo‘nalish qolgan barcha islohot yo‘nalishlarining samaradorligini ta’minlovchi asosiy shart sifatida qaralishi lozim.

Umuman olganda, xorijiy modellarni O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish alohida chora-tadbirlarni ko‘chirish emas, balki ularni o‘zaro bog‘liq yagona mexanizm sifatida shakllantirishni talab etadi. Investitsiya



muhiti raqobatbardoshligi alohida qarorlar yoki imtiyozlar hisobiga emas, balki institutsional barqarorlik, fiskal rag'batlantirish, hududiy rivojlanish, raqamli boshqaruv, inson kapitali va makroiqtisodiy barqarorlikning o'zaro mutanosibliigi orqali ta'minlanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot investitsiya muhiti raqobatbardoshligini ta'minlashning xorijiy modellari o'rtasida tuzilmaviy farqlar mavjud bo'lsa-da, ularning muvaffaqiyatini belgilovchi umumiy omillar mavjudligini ko'rsatdi. Xususan, institutsional barqarorlik, huquqiy himoya kafolatlari, investitsiya siyosatining izchilligi, zamonaviy infratuzilma va malakali inson kapitali raqobatbardosh investitsiya muhitini shakllantirishning asosiy shartlari sifatida namoyon bo'ladi. Empirik tahlil ushbu omillarning amaliy ahamiyatini tasdiqladi. Jumladan, barqaror institutsional tizimga ega Singapur to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning sof kirimi bo'yicha yuqori va izchil ko'rsatkichlarni saqlab kelgan bo'lsa, Irlandiya tajribasi soliq imtiyozlariga asoslangan investitsiya oqimlarining tashqi omillarga sezgirligini ko'rsatdi.

Xorijiy modellarni O'zbekiston sharoitiga tatbiq etishda mamlakatning milliy xususiyatlarini inobatga olgan holda islohot yo'nalishlarini tanlab moslashtirish tamoyiliga rioya etish zarur. Empirik natijalar O'zbekistonning yalpi ichki mahsulotga nisbatan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar ko'rsatkichi ayrim mamlakatlarga nisbatan yuqori ekanini ko'rsatgan bo'lsa-da, ushbu ko'rsatkichning izchil o'sish trayektoriyasiga chiqishi hali to'liq ta'minlanmagan. Shu bois institutsional, soliq-raq'batlantirish, hududiy rivojlanish, raqamli boshqaruv va inson kapitali yo'nalishlaridagi islohotlarni yaxlit siyosat tizimi sifatida amalga oshirish investitsiya muhiti raqobatbardoshligini barqaror oshirish hamda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish samaradorligini mustahkamlash imkonini beradi.

Tadqiqot natijalarining nazariy ahamiyati xorijiy modellarni yagona mezonlar asosida tizimlashtirish va ularni milliy iqtisodiyotga moslashtirish konsepsiyasini asoslashda namoyon bo'ladi. Amaliy ahamiyati esa milliy investitsiya siyosatini takomillashtirish bo'yicha aniq taklif va tavsiyalar ishlab chiqish imkonini berishi bilan belgilanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Benassy-Quere, A., Coupet, M., & Mayer, T. (2005). Institutional Determinants of Foreign Direct Investment. CEPII Working Paper. 28 p. URL: https://www.cepii.fr/PDF_PUB/wp/2005/wp2005-05.pdf.
2. UNCTAD. (2024). World Investment Report 2024: Investment Facilitation and Digital Government. United Nations. URL: <https://unctad.org/publication/world-investment-report-2024>.
3. U.S. Department of State. (2024). 2024 Investment Climate Statements: United Arab Emirates. URL: <https://www.state.gov/reports/2024-investment-climate-statements/uae>.
4. Habib, M., & Zurawicki, L. (2002). Corruption and Foreign Direct Investment. *Journal of International Business Studies*, 33, 291–307.
5. Cronin, B. Corporation Tax Revenue Concentration in Ireland. Irish Fiscal Advisory Council Working Paper.
6. Asiedu, E. (2002). On the Determinants of Foreign Direct Investment to Developing Countries: Is Africa Different? *World Development*, 30(1), 107–119.
7. Daude, C., & Stein, E. (2007). The Quality of Institutions and Foreign Direct Investment. *Economics & Politics*, 19(3), 317–344.
8. Pobirchenko, V. V., & Shutaeva, Ye. A. Investitsionnaya privilekatelnost stran s perekhodnoy ekonomikoy: mezhdunarodnyy opyt i uroki dlya Tsentralnoy Azii. *Voprosy ekonomiki*, 45–61. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/opyt-zarubezhnyh-stran-v-sfere-privlecheniya-pryamyh-inostrannyh-investitsiy-vozmozhnosti-benchmarkinga-dlya-rossii/viewer>.
9. Salayev, D. S. Qulay investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishning xorij tajribasi. *International Scientific Journal of Biruni*, 215-bet.
10. Maygojina, G. K. Qozog'iston investitsiya muhitini yaxshilashni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish masalalari. *Yevraziya iqtisodiy jurnali*, 112–128.
11. Zeng, D. Z. How Do Special Economic Zones and Industrial Clusters Drive China's Rapid Development? *World Bank Policy Research Working Paper*, No. 5583.
12. Zeng, D. Z. What Determines the Heterogeneous Performance of Special Economic Zones? Evidence from Sub-Saharan Africa. *Global Policy*, 13(4), 495–506. <https://doi.org/10.1111/1758-5899.13054>.
13. Rodrik, D. Industrial Policy for the Twenty-First Century. UNIDO Working Paper. <https://doi.org/10.2139/ssrn.617544>.
14. OECD. (2025). Roadmap for Sustainable Investment Policy Reforms in Uzbekistan. URL: https://www.oecd.org/en/publications/2025/11/roadmap-for-sustainable-investment-policy-reforms-in-uzbekistan_68204584.html.
15. Uroven inflyatsii v Argentine po godam: grafik i tablitsa.
16. Rasm muallif tomonidan Jahon bankining "Foreign Direct Investment, Net Inflows (% of GDP)" ma'lumotlari asosida tuzildi.
17. Jadval muallif tomonidan tuzildi.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 6/4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>